



Xalq og'zaki ijodi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi

Olimova Nilufar Qosimjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti,
boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi,
E-mail: olimovan888@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-9891-9988>

Prxoniddinova Gulxayo Faxriddin qizi –

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish yoritildi. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodining – ertak, maqol, topishmoq, tez aytish o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, ifodali va ravon nutqini shakllantirish, mantiqiy fikrlash hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi vositalarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati, mustaqil fikrlashi va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada xalq og'zaki ijodining ta'limdagi ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy metodik tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, nutqni rivojlantirish, to'g'ri talaffuz, muloqot madaniyati, maqol, topishmoq, tez aytish, ertak.

Методика развития культуры речи учащихся начальных классов с использованием устного народного творчества

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие культуры речи учащихся начальных классов с использованием устного народного творчества. В исследовании обосновывается роль устного народного творчества – сказок, пословиц, загадок, скороговорок – в расширении словарного запаса учащихся, формировании выразительной и плавной речи, развитии логического мышления и культуры общения. Кроме того, научно доказано, что применение средств устного народного творчества в образовательном процессе способствует развитию творческих способностей, самостоятельного мышления и коммуникативных навыков учащихся. Статья более глубоко раскрывает значение устного народного творчества в образовании и предлагает практические методические рекомендации для учителей начальных классов.

Ключевые слова: устное народное творчество, развитие речи, правильное произношение, культура общения, пословица, загадка, скороговорка, сказка.

Methodology for developing speech culture of primary school pupils through folk oral literature

Annotation. This article explores the development of speech culture in primary school pupils through the use of folk oral literature. The study substantiates the role of folk oral creativity – fairy tales, proverbs, riddles, and tongue twisters – in expanding students' vocabulary, forming expressive and fluent speech, developing logical thinking, and enhancing communication skills. Furthermore, it is scientifically proven that incorporating folk oral literature into the educational process helps develop pupils' creativity, independent thinking, and communication abilities. The article provides a deeper insight into the significance of folk oral literature in education and offers practical methodological recommendations for primary school teachers.

Keywords: folk oral literature, speech development, correct pronunciation, communication culture, proverb, riddle, tongue twister, fairy tale.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida e'tiborga molikdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida nutq madaniyatining rivojlanishi bolaning keyingi o'quv faoliyati, muloqot madaniyati, tafakkuri va ijodiy fikrlash qobiliyatini belgilaydi. Nutq madaniyati nafaqat to'g'ri talaffuz va grammatikani bilishni, balki fikrini aniq, lo'nda va estetik jihatdan ifodalashni, suhbatdoshini tinglashni va muloqot odobini hurmat qilishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida samarali pedagogik vositalar va metodik yondashuvlarga ega bo'lishi muhimdir.

Xalq og'zaki ijodi – ertak, maqol, topishmoq va tez aytishlar kabi janrlarni o'z ichiga oluvchi boy ma'naviy meros, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ifodali va ravon nutqini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashini mustahkamlash hamda muloqot madaniyatini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi vositalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati, mustaqil fikrlashi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori va 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asos yaratadi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" esa yoshlarning mustaqil fikrlash, Vatanga sodiqlik, demokratik qadriyatlarni anglash va ijtimoiy faolligini oshirish vazifalarini belgilab, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muloqot va ijodiy salohiyatini shakllantirishning ustuvorligini ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutq madaniyatini rivojlantirish va xalq og'zaki ijodidan foydalanish masalasi bo'yicha pedagogik adabiyotlarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, T.Azizov (2018) boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini tizimli ravishda bayon qilib, darslarda so'z boyligini oshirish va ifodali nutqni rivojlantirishga qaratilgan usullarni ta'kidladi. R.Karimov (2020) esa xalq og'zaki ijodining – ertak, maqol, topishmoq va tez aytishlarning pedagogik imkoniyatlarini o'rganib, ularni amaliy darslarda qo'llash samaradorligini ko'rsatdi.

N.Oripova (2017) nutq madaniyati nafaqat talaffuz va grammatikani bilish bilan cheklanmasligini, balki fikrni aniq, lo'nda va estetik jihatdan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va muloqot odobini hurmat qilish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Farmonlarida (2017, 2019) belgilangan ta'lim standartlari va strategik hujjatlar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga ilmiy asos yaratadi va pedagogik jarayonni tartibga soladi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyati e'tiborga olingan. Masalan, V.P. Ivanov (2015) va J.Smith & L.Brown (2019) xalq og'zaki ijodi vositalarini boshlang'ich maktab darslariga integratsiya qilish orqali bolalarning muloqot qobiliyati, ijodiy fikrlash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatdi. UNESCO (2016) hisobotida esa ertaklar, qo'shiq va topishmoqlar orqali bolalarning nutqini va til kompetensiyasini mustahkamlashning samarali pedagogik yondashuvlari keltirilgan.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodini boshlang'ich sinf darslarida tizimli va metodik jihatdan qo'llash, o'quvchilarning nutq madaniyati, muloqot madaniyati va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, xalq og'zaki ijodining pedagogik

imkoniyatlarini amaliy tarzda tadqiq etish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi – ertak, maqol, topishmoq va tez aytishlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarning so'z boyligi, ifodali nutqi, mantiqiy fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirish samaradorligini aniqlashdir. Tadqiqotda nazariy metodlar sifatida mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va konkret misollarni o'rganish, empirik metodlar sifatida kuzatish, suhbat va intervyu o'tkazish hamda diagnostik test va viktorinalardan foydalanish qo'llanildi. Shuningdek, amaliy metodlar orqali xalq og'zaki ijodi vositalarini dars jarayoniga integratsiya qilish, o'quvchilarning ijodiy ishlarini baholash va rag'batlantirish amalga oshirildi. Olingan natijalarni tahlil qilish va baholash jarayonida analitik metodlar qo'llanilib, o'quvchilarning nutq madaniyati darajasidagi o'zgarishlar aniqlandi. Tadqiqot metodologiyasi xalq og'zaki ijodi pedagogik ahamiyati, nutq madaniyati va boshlang'ich ta'lim psixologiyasiga asoslangan bo'lib, uning natijalari o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish bo'yicha amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalq og'zaki ijodi vositalarini dars jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning nutq madaniyatini samarali rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar va tez aytishlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ifodali va ravon nutqini shakllantirish, shuningdek, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot davomida kuzatish va diagnostik testlar natijalari shuni ko'rsatdiki, darslarda xalq og'zaki ijodidan muntazam foydalanilgan o'quvchilar so'z boyligi va nutq ifodasi jihatidan sezilarli darajada o'sish ko'rsatgan.

Shuningdek, suhbat va intervyular natijasida o'quvchilar o'z fikrini aniq, lo'nda va estetik jihatdan ifodalashga bo'lgan qiziqishining oshgani, tinglovchi bilan muloqot qilish madaniyati va suhbat odobini yaxshilagani aniqlandi. Bu, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida muloqot madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy faoliyatga tayyorlikni oshirishga yordam berdi. Xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishda ham samarali. Masalan, ertaklarni qayta hikoya qilish yoki topishmoqlarga javob topish jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlashni, muammolarni hal qilish qobiliyatini va fantaziyasini faol ishlatdilar. Tez aytish mashqlari esa nutq tezligi va ravonligini oshirish, talaffuz aniqligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan boshqa muhim jihat shundaki, xalq og'zaki ijodi vositalarini qo'llash dars jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. O'quvchilar darslarda faol ishtirok etishdi, yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirishdi va kommunikativ vazifalarni bajarishda o'zini ishonchli his qildilar. Bu esa pedagogik jarayonda xalq og'zaki ijodi vositalarining metodik samaradorligini tasdiqladi.

Xalq og'zaki ijodidan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyati va muloqot qobiliyatini rivojlantirish bilan cheklanmay, ularning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va jamoadagi hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot ma'lum qildi, xalq og'zaki ijodi vositalarini metodik jihatdan tizimli qo'llash, dars rejasiga integratsiya qilish va muntazam amaliy mashqlar bilan birlashtirish natijani sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodining pedagogik ahamiyati va boshlang'ich ta'limdagi metodik imkoniyatlarini yanada aniq ko'rsatdi. Shu asosda o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar darslarda samarali qo'llanilishi mumkin va bu jarayon

o'quvchilarning til va muloqot kompetensiyasini, shuningdek, ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nutqni rivojlantirish deyilganda o'quvchilarning yaqinlari, do'stlari, ustozlari oldida aniq, ravon, ifodali, tutilmasdan, ma'noli va mazmundor muloqot qilishlari nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalari o'rni beqiyosdir. Masalan: maqollar o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, ma'noli va mazmundor fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi. So'zlarni qaysi o'rinda qay tarzda qo'llashni o'rganadi. Fikrlarini aniq dalillay olishlariga yana ham yordam beradi. Topishmoqlar esa o'quvchilarni ko'proq fikrlashlarini, tafakkur va aniqligini rivojlantiradi. Topishmoqlarning yechimini topish orqali yangi so'zlarni eslab qoladilar, ularning ma'nosini tushunadilar va nutqida qo'llashni o'rganadilar. Topishmoqlar og'zaki aytiladi, o'quvchi uni tinglaydi, ma'nosini tushunadi va o'z fikrini ifoda etadi – bu jarayon og'zaki nutqni mustahkamlaydi. Tez aytishlar o'quvchilarning tovushlarni aniq va ravon talaffuz qilish malakasini shakllantiradi. Tez aytishlarni muntazam aytish orqali o'quvchi tez, to'xtalmasdan, ifodali gapirishga o'rganadi. Bu esa og'zaki nutq madaniyatini shakllantiradi. Ertaklarda turli xil yangi, badiiy so'zlar uchraydi. O'quvchilar ularni tinglab yoki o'qib, yangi so'zlarni o'zlashtirishadi, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rganadilar, ifodali nutq ko'nikmasini hosil qilishadi. Ertakni qayta hikoyalash, rollarga bo'lib o'qish orqali o'quvchilar ravon, izchil va ifodali gapirishni mashq qiladilar. Ertaklar – bu nafaqat axloqiy tarbiya vositasi, balki o'quvchilarning nutqini, tafakkurini rivojlantiruvchi vositadir. Xalq og'zaki ijodi – boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq madaniyatini rivojlantirishning eng qudratli vositasi. U bolalarning nafaqat nutqini, balki tafakkurini, muloqot ko'nikmalarini, ma'naviyatini, ijodkorlik salohiyatini ham shakllantiradi. To'g'ri metodik yondashuv orqali xalq og'zaki ijodi darslarni mazmunli, qiziqarli va samarali qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizov T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2018. – B.178.
2. Karimov R. Xalq og'zaki ijodi pedagogik amaliyotda. – Toshkent: Fan va Ta'lim, 2020. – B.202.
3. Oripova N. Nutq madaniyati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish. – Toshkent: Sharq, 2017. – B.165.
4. Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida (Qaror №187). – Toshkent, 2017. – B.34.
5. Prezident Farmoni PF-5712. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. – Toshkent, 2019. – B.28.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent, 2017. – B.42.
7. Ivanov V.P. Folk oral literature as a means of speech development in primary education. – Moscow: Pedagogical Press, 2015. – P.190.
8. Smith J., Brown L. Developing Communication Skills in Young Learners through Oral Literature. – London: Routledge, 2019. – P.210.
9. UNESCO. Teaching and learning: Developing oral language skills in early childhood education. – Paris: UNESCO Publishing, 2016. – P.75.
10. Botirov H. Sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda innovasion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2022. – B.245.